

O'TKIR HOSHIMOV QALAMIGA MANSUB "DUNYONING ISHLARI" QISSASINING LINGVOPOETIK JIHATI

Termiz Davlatm Pedagogika Instituti

*Ilmiy rahbar: **Hakimova Farida***

*Talaba: **Ergasheva Munira***

Annotatsiya: Biz ushbu maqolada o'z davrining yetuk namoyondalaridan bir bo'lgan yozuvchi va jamoat arbobi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasini lingvopoetik jihatdan o'rganib chiqamiz.

Annotatsion: In this article, we examine the novella “The Affairs of the World” by writer and public figure O‘tkir Hoshimov — one of the outstanding representatives of his time — from a linguopoetic perspective.

Аннотация: В данной статье мы изучаем повесть О‘ткира Хошимова «Дела мира» — произведение одного из выдающихся представителей своего времени, писателя и общественного деятеля — с лингвопоэтической точки зрения.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, iboralar, frazeologiya, maqollar, zid ma'noli so'zlar, badiiy asar tili

Keywords: linguopoetics, expressions, phraseology, proverbs, antonyms, language of literary works

Ключевые слова: лингвопоэтика, выражения, фразеология, пословицы, антонимы, язык художественного произведения.

Lingvopoetika lingvistik poetikaning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklar: fonetik, morfemik, leksik va boshqalarning badiiy estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyalarini o'rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqini o'rganadigan bo'limidir. Badiiy matn lingvopoetikasi muammosini o'zbek tili materiallari asosida mufassal tadqiq etgan M.

Yo'ldoshev o'zining "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili" nomli kitobida lingvopoetik tahlilning quyidagi asosiy tamoyillarini ko'rsatadi.

- 1) shakl va mazmun birligi asosida yondashuv
- 2) makon va zamon birligidan kelib chiqish
- 3) umumxalq tili va adabiy til munosabati asosida baholash
- 4) badiiy matnga badiiy-estetik yaxlitlik sifatida yondashuv
- 5) badiiy matnda poetik aktuallashtgan til vositalarini aniqlash
- 6) badiiy matndagi eksplitsitlik va implitsitlik nisbatini aniqlash
- 7) badiiy matndagi intertekstuallik mexanizmlarining lisoniy va semantik xususiyatlarini aniqlash

Darhaqiqat, adib biror bir asar yaratar ekan undagi har bitta so'zning joylashuvi, maqollarning xalqchanligi va shevaga oid so'zlarning joylashish o'rniga e'tibor qaratadi. Shu o'rinda O'zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti sovrindori, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari katta-kichik hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va tòlliqlik tarzda 2005-yili "Sharq nashriyoti" tomonidan nashr etilgan. Bu asar onalar haqida bòlib xalqimiz orasida iliq fikrlar eshitishimiz mumkin. Òzbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmad qissani shunday ta'riflagan: " „Dunyoning ishlari" asarini qissa emas doston deb atashni istar edim. U qòshiqday òqiladi. Uni òqib turib òz onalarimizni eslab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bòlmas qarzlarning aqalli bittasini uza oldikmi degan bir andisha, bir savol kòz oldimizga kòndalang turib oladi. Qissa bizni insofqa, insonlarni qadrlashga da'vat etadi" - deydi. Asarda ishlatilgan til xalq og'zaki ijodi bilan zamonaviy adabiy tildagi uslubiy uyg'unlikni vujudga keltiradi. Bu uyg'unlik asarning obrazlar tizimi, ularning nutqi va ichki monologlari orqali yanada uyg'unlashadi. Shunday qilib, asar faqat mazmun jihatidan emas balki lingvopoetik tuzilish jihatidan ham o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega. Asar boshida keltirilgan "Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun aziz inson - onam siymosi bor. Bunday odamlarning

hammasini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Faqat ba'zilarining ismi o'zgartirildi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihati bilan onamga bog'langan. Dunyodagi hamma onalar farzandiga bòlgan munosabat bobida bir-biriga juda òxshaydi. Bas, shunday ekan, bu asar sizlarga bağishlanadi, aziz onajonlar"[1]. Yozuvchining asarga marjonday joylashtirgan bu gaplaridan aziz va mo'tabar onalarimiz va ularning biz farzandlariga bòlgan munosabati haqida ekanligi uning mazmunini ifodalasa, asardagi "Tasalli" nomli hikoyada " Qabriston jimjit. Faqat yòlakning ikki chetida saf tortgan mirzateraklar qabr ustiga bosh eggan farzandlardek onaga orom tilab alla aytadi. Ularning mungli shivirlashi tilovat sadolariga qòshilib, yurakni ezuvchi ohangga aylanadi...." - deyilgan.

Bu jumlar orqali biz quyidagi lingvopoetik jihatlarni kòra olamiz.

Personifikatsiya (jonlantirish)

"Mirzateraklar..... alla aytadi"

"Bosh eggan farzandlardek" - bu òsimliklarga insoniy his va harakatlar yuklatilgan. Daraxtlar farzand, alla aytuvchi sifatida tasvirlanib, tabiatga ruh va tuyğú berilgan.

Taqqoslash (òxshatish)

"Bosh eggan farzandlardek" - mirzateraklar farzandlarga òxshatilib, mehr, saodat, soğinch va kayfiyatini kuchaytirgan. Bu orqali tabiat va inson orasidagi ruhiy aloqadorlik ochilgan.

Metafora (kòchma ma'no)

"Onaga orom tilab alla aytadi" - daraxtlarning shivir-shiviri allaga tenglashtirilgan. Bu tinchlik, osoyishtalik va mehrni ifodalaydi.

Adabiy asar tilidagi har bir sòz òz "yuki"ga ega bòladi. V.G.Korolenko uqtirganidek, " sòz shamol uchirib ketadigan òyinchoq shar emas. U ish quroli, u ma'lum miqdordagi yukni kòtarishi kerak. Biz boshqalarning ruhini qamrab olishiga, kòtarishiga qarab turib, sòzning ahamiyatiga va kuchiga baho beramiz". [2] Shunday ekan "

Dunyoning ishlari" asaridagi " Sovchilar" hikoyasidagi mana bu jumlalarga e'tibor qarataylik:

"Meni Odilxòja-yu Mahmud bukur ham, Muborak chevar-u "Zinger" mashinasi ham qiziqtirmas, ikki kòzim qandda edi. Òzimning borligimni bildirib qòyish uchun qalamtaroshni qòlimdan tushirib yubordim. Oyim yalt etib qaradi-yu, pastki labini tishlab bilinar- bilinmas bosh chayqab qòydi. Bu - " uyat bòladi,chiqib ket",degani edi. Qanddan umidimni uzib chiqib ketishdan bòlak choram qolmadi. Yarim soatdan keyin sovchilar ketishdi. Kuchugimning alami ichida qolgan ekan, shekilli, oyimning hay-haylashiga qaramay, sovchilarni ancha joygacha "kuzatib" keldi.

Òzbek millatining urf- odatini, òziga xos ananalarini va turush tarzini ifodalagan bu parchada biz

lingvopoetik jihatdan inson ruhiyatining nozik ichki kechinmalarini badiiy ifoda etish jihatlari bilan ajralib turadi. Muallif tasvir vositalari, sòz tanlovi va sintaktik qurilish orqali voqea ichidagi hissiy dramatismni chuqur ifodalagan. Parcha markaziad qahramonning ichki kechinmasi - hayajon, umid, uyat va alam hissi yotadi. " Qalamtaroshni qòlimdan tushurib yubordim" iborasi bevosita sò bilan emas, balki kinetik detal orqali kechinmani aks ettiradi. Bu holat qahramonning òzini tuta olmaganini obrazli harakat orqali ifodalagan. " Oyim yalt etib qaradi-yu, pastki labini tishlab bilinar-bilinmas bosh chayqadi"- satrida esa sòzsiz muloqot, jim ishora orqali ma'no berish hodisasi namoyon bòlgan.Bu til vositalari òz ek xalqining milliy andisha, hayo va qadriyatlarini badiiy tarzda ifodalaydi. Muallifning bu uslubi asarda subtekst yaratadi, ya'ni ochiq aytilmagan ma'nolarni his qildirishga xizmat qiladi. Òzbek millatida azaldan bor qadriyatlar ya'ni mehmon kelganda yosh bolalar dasturxon atrofida aylanishmasligi ularning bòlar-bòlmasga mehmonlarning atrofida aylanmasligi, girdikapalak bòlmasligi chiroyli tarzda ochib berilgan. Aynan kuchukning mehmonlarni ancha joygacha " kuzatib " kelishi asarga lingvopoetik jihatdan ajib ma'no yuklaydi. Qòshtirnoq ichida keltirilgan bu sòz kuchukning begona mehmonlarni anchagina joygacha akillagancha quvib borganini ifodalaydi. Haqiqatdan, òzbek tili shunchalar boy tilki, buni biz asardagi har bitta sòzning òrnida kòrishimiz mumkin. Kòchma ma'nolar, jonlantirishlar, sinonim, omonim, antonim,

maqollar, iboralarsiz òzbek adabiyotini tasavvur qila olmaymiz. Bittagina kuchukning "kuzatib" kelishida biz 2-3 ta sòzga sigʻadigan ma'no anglashimiz mumkun. "Badiiy asar sòz jihatidan siqiq, fikr jihatidan keng bòlishi" kerak, deb ta'kidlaydi Maksim Gorkiy.[3]

Asarni òqir ekanmiz undagi turli xil hayotiy voqealarga guvoh bòlamiz. Bu voqealar shunday badiiy tasvirlar orqali yoritiladiki, ta'riflashga til ojiz. Shu jumladan asarda keltirilgan "Oltin baldoq" hikoyasidagi quyidagi parchaga nazar tashlaylik.

"Karmonni katta ochgan,

Ayamay pulni sochgan.

Qorinlari qopday,

Mòylovkari shopday

Qaynotasiga salo - o - m!

Tili bilan teng aylanadigan,

Xizmatiga shaylanadigan,

Tòydan quruq qaymaydigan,

Sòzlari moyday, yuzlari oyday

Qaynonasiga salo - o - m!"

Shunday shirali va yoqimli kelin salomlar òzbek xalqiga mansubligi bilan ajralib turishi va undagi gar bitta obrazga berilgan ta'riflarning joy-joyida kelishi, sifatlovchi aniqlovchilarning òzbek qanonasiga va qaynotsiga berilayotgani, sòzlarning terib olingani alohida tahsinga loyiqdir.

Xulosa qilib aytadigan bòlsak, har bitta asar kitobxon tomonidan sevib òqilishi uchun yozuvchi unga butun jon-u jahonini berib yozishi darkor. Asardagi har bitta element kitobhon nazaridan chetda qolmaydi. Òtkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari ham

mhkammal tarzda yaratilgan asarlardan bòlib, undagi har bitta hikoyada, hikoyadagi har bitta gapda, gapda har bitta sòzda olam-olam ma'no bor. Bu asarni biz lingvopoetik jihatdan ham, shakl jihatdan ham, mazmun tomonidan ham tahlil qilib oxirigz yetmaymiz.

[1] Òtkir Hoshimov " Dunyoning ishlari" qissasi. "Nurli dunyo" nashriyot uyi. Toshkent 2024. 7-sahifa

[2] Tòxta Boboev "Adabiyotshunoslik asoslari". Toshkent. "Òzbekiston" nashriyoti. 2002-yil. 164-sahifa

[3] Maksim Gorkiy. Pismo o literature. M., " Sov pisatel", 1957-yil. 321-sahifa

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M. Yòldoshev "Badiiy matn va lingvopoetik tahlil"
2. O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari" qissasi
3. Tòxta Boboev "Adabiyotshunoslik asoskari"